



FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 12-dekabr

256-11-163-Q/25

Farg'ona tumani hokimligi

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy Davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 21¹-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2024 yil 14 apreldagi "2024 yil uchun tasdiqlangan mahalliy budjet parametrlarida ish haqi va yagona ijtimoiy soliqlar bo'yicha mablag' yetishmovchiligiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida"gi 03/1-1180-sonli topshiriq-xati ijrosini ta'minlash, shuningdek joriy 2025 moliya yilini sifatli yakunlash maqsadida tuman mahalliy budjeti xarajatlar manbaiga o'zgartirishlar kiritish yuzasidan tuman hokimligi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy Davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 21¹-moddalari, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2024 yil 14 apreldagi "2024 yil uchun tasdiqlangan mahalliy budjet parametrlarida ish haqi va yagona ijtimoiy soliqlar bo'yicha mablag' yetishmovchiligiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida"gi 03/1-1180-sonli topshiriq-xati ijrosini ta'minlash maqsadida tuman mahalliy budjeti xarajatlar manbaiga ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov)ga, tuman mahalliy budjeti xarajatlar manbaiga kiritilayotgan o'zgartirishlar bo'yicha tegishli tashkilot va muassasalarning 2025 yilgi xarajatlar smetalariga o'zgartirishlarni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazishni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan tashkilotlar rahbarlari tomonidan 2025 yilgi xarajatlar smetalariga o'zgartirishlar kiritilganligi inobatga olinsin hamda aniqlangan xarajatlar smetalari bo'yicha mablag'larni maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov)ga tuman mahalliy budjetining 2025 yilgi xarajatlar manbaiga kiritilayotgan o'zgartirishlarni viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi bilan kelishgan holda amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.

5. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi maskur qaror bilan ajratilgan mablag' haqidagi hisobotni navbatdagi sessiya muhokamasiga kiritilishini nazoratga olsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari O.Abduraximov zimmlariga yuklatilsin.

Farg'ona tuman hokimi



Inomov X.T

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 12-dekabrdagi
256-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**Farg‘ona tumani mahalliy budjetidan moliyalashtiriladigan budjet
muassasalarining 2025 yil noyabr’ oyi 2-yarim oyi ish haqisi bo‘yicha tuman
hokimi qaroriga ilova**

ming so‘mda

№	Tashkilot nomi	Bo‘lim, kichik bo‘lim,bob	Jami	Harajat moddasi		
				41 11 100	41 11 230	43 32 900
1	Tuman hokimligi apparati	7 011 204 018	45 000	45 000		-
2	Axborot kutubxona bo‘limi	7 082 102 134	6 000	6 000		
3	Obodonlashtirish boshqarmasi	7 065 200 084	-51 000			- 51 000
4	Madaniyat bo‘limi	7 089 400 056	0	1 600	- 1 600	
Jami			0	52 600	-1 600	-51 000